

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ORQALI INFORMATIKA
TO'GARAKLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY SALOHİYATINI
RIVOJLANTIRISH**

Botiraliyeva Maftuna Botirali qizi

Qo'gon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Aynan informatika to'garaklari akmeologik yondashuvni samarali joriy etish uchun qulay maydondir, chunki bunday to'garaklarda o'quvchilar mustaqil fikrlashadi, yangi loyihalar ishlab chiqishadi, muammoli vazifalarni hal etishadi va jamoaviy ijodiy faoliyatda ishtirok etishadi.*

Kalit so'zlari: *Akmeologik yondashuv, o'quvchilarda, to'garaklar, Qiziqarli informatika, pedagogik vazifalar, axborot texnologiyalar, innovatsion*

КОНТЕКСТНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: *Кружки информатики являются удобной площадкой для эффективной реализации акмеологического подхода, поскольку в таких кружках учащиеся самостоятельно мыслят, разрабатывают новые проекты, решают проблемы, участвуют в коллективной творческой деятельности.*

Ключевые слова: *Акмеологический подход, студенты, кружки, интересная информатика, педагогические задачи, информационные технологии, инновационные*

CONTEXTUAL APPROACH TO TEACHER TRAINING

Abstract: *Computer science circles are a convenient platform for the effective implementation of the acmeological approach, because in such circles, students think independently, develop new projects, solve problems, and participate in collective creative activities.*

Keywords: *Acmeological approach, students, circles, Interesting informatics, pedagogical tasks, information technologies, innovative*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni itindustriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020 yil 6 oktyabr) PQ-4851-son, "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021 yil 25 yanvar) PF-4963-son, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021 yil 17 fevral) PQ-4996-son, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2024 yil 2 fevral) PF-53-son, "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2019 yil 30 sentyabr) PQ-4467-son va "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022 yil 22 avgust) PQ-357-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020 yil 5 oktyabr) PF-6079-son.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning tafakkuri, ijodkorligi, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi. Ayniqsa, raqamli davrda bu ehtiyoj yanada dolzarb tus olgan. Informatika fani o'quvchilarda axborot texnologiyalari, algoritmik fikrlash va innovatsion g'oyalardan foydalanish malakasini rivojlantirishda asosiy vositadir.

Mazkur jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun akmeologik yondashuvni joriy etish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki akmeologiya — bu insonning shaxsiy, kasbiy va ijodiy salohiyatini eng yuqori cho'qqiga olib chiqishga yo'naltirilgan fan bo'lib, u ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini anglash va ularni ijodiy faoliyatda ro'yobga chiqarishiga zamin yaratadi. Aynan informatika to'garaklari akmeologik yondashuvni samarali joriy etish uchun qulay maydondir, chunki bunday to'garaklarda o'quvchilar mustaqil fikrlashadi, yangi loyihalar ishlab chiqishadi, muammoli vazifalarni hal etishadi va jamoaviy ijodiy faoliyatda ishtirok etishadi. Akmeologik yondashuv shaxs rivojlanishining eng yuqori bosqichiga – "akme" darajasiga erishishni nazarda tutadi. Bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:[3]

Individuallik – har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari va qiziqishlariga e'tibor qaratish;

O'zini anglash va o'zini boshqarish – o'quvchini o'z faoliyatini tahlil qilish, maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini belgilashga o'rgatish;

Ijodkorlik va refleksiya – o'quvchining yangilik yaratish, o'z faoliyatiga tanqidiy baho berish ko'nikmasini shakllantirish;

Rivojlanishning bosqichliligi – shaxsiy yutuqlarga erishish jarayonini izchil, tizimli tashkil etish.

Ta'limda akmeologik yondashuvning joriy etilishi o'quvchini faqat tayyor bilim egallovchi emas, balki bilimni yaratuvchi va uni amaliyotga tatbiq etuvchi ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Informatika to'garaklari o'quvchilar uchun o'quv dasturi doirasidan tashqarida, lekin o'ta ijodiy muhitda ishlash imkonini beradi. Bunda

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

akmeologik yondashuv quyidagi jihatlar orqali o'z aksini topadi [5]. Faoliyat samaradorligi to'garak a'zolari tomonidan ta'lim dasturi talablarining muvaffaqiyatli bajarilishi, ular tomonidan taqdim qilingan loyihalar mazmunining mantiqiy va dizayni nuqtayi nazaridan yuqori saviyada ekani, loyihalar ko'rgazmasining tashkil qilinishi va tashrif buyuruvchi o'quvchilar, o'qituvchilar, ayniqsa, "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv fanining o'qituvchilari, ota-onalarning ko'rgazma materiallari – "eksponatlari"ga nisbatan munosabatlari, baholari asosida tashxislandi.

Qayd etilgan harakatlar "Qiziqarli informatika" to'garagi faoliyatini maqsadli, tizimli, izchil, uzluksiz tashkil etilishi, o'quvchilarda informatika va axborot texnologiyalari sohasiga oid aniq tushuncha, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratilishini ta'minlashga xizmat qildi[4].

I. Tashkiliy-pedagogik bosqich:

1.1. To'garak faoliyatining maqsadi va vazifalarini belgilab olish. Ushbu bosqichda to'garak faoliyatining maqsadi va vazifalarining aniq belgilab olinishiga e'tibor qaratildi. "Qiziqarli informatika" to'garagining maqsadi o'spirin-o'quvchilarda muhim va zarur huquqiy axborotlarni mustaqil izlash, ularni jamlash, tahlil qilish, sintezlash, saralash, tizimlashtirish, samarali o'zlashtirish, ulardan muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradigan kompyuter, axborot hamda raqamli kompetentliklar negizida aks etadigan va murakkab bo'lmagan kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat etib belgilandi. To'garak faoliyatini tashkil qilishda hal etiladigan pedagogik vazifalar ularning mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratildi: tashkiliy pedagogik vazifalar; funksional pedagogik vazifalar.

1.2. Fan to'garagi uchun o'quv xonasini tanlash. Tashkiliy-pedagogik bosqichda, shuningdek, to'garak faoliyatini tashkil qilish uchun o'quv xonasi tanlandi. Darslar bir smena (kunning birinchi yarmi)da tashkil qilinadigan maktablarda to'garak faoliyati "Matematika" xonasida olib borildi. Darslar ikki smena (kunning birinchi va ikkinchi yarmi)da tashkil qilinadigan maktablarda esa to'garak faoliyati o'quvchilar uchun mo'ljallangan "Ijod xonasi"da olib borildi.[2]

1.3. To'garakka o'quvchilarni jalb qilish. Bu bosqichda to'garakka o'quvchilarni jalb qilish masalasi ham hal qilindi. O'quvchilarni to'garakka qabul qilish ikkita: "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan zarur bilim va malakalarga egalik hamda ega emaslik mezonlari bo'yicha amalga oshirildi. Buning sababi o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning mavjud bilim va malakasidan kelib chiqqan tanlash zarur ekani bilan bog'liq bo'ldi.

1.4. O'quv xonasini hamda o'quv resurslarini tayyorlash. Tegishli bosqichda hal qilingan tashkiliy-pedagogik vazifalardan yana biri o'quv xonasini hamda o'quv resurslari: pedagogik va axborot texnologiyalarini tayyorlashdir. Ushbu jarayonda mavjud media materiallar hamda to'garak a'zolarining yordamidan foydalanildi.

II. To'garak faoliyatining mazmunini shakllantirish va rejasini ishlab chiqish bosqichi.

2.1. To'garak faoliyatining mazmunini shakllantirish. Bu jarayonda to'garak faoliyatining mazmunini samarali shakllantirishga diqqat qaratilib, uning akmeologik,

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

innovatsion, kollaborativ, ijodiy xarakter kasb etishi ta'minlandi. To'garak a'zolarining topshiriqlarni bajarishda innovatsion, loyiha, interfaol, muammoli, kompyuter ta'limi hamda o'yin texnologiyalarini o'rinli, samarali qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi. Shu bilan birga to'garak topshiriqlarining interfaol metodlar, grafik organayzerlar, ta'lim strategiyalari, infografik konstruktorelar, Internet resurslaridan foydalanish uchun sharoit yaratildi.

2.2. "Qiziqarli informatika" to'garagi faoliyatining dasturini ishlab chiqish. Dasturi ishlab chiqishda to'garak a'zolarining informatika va axborot texnologiyalariga oid nazariy bilim va amaliy malakalarga egaliklarini inobatga olgan holda o'quv materiallarining boshlang'ich va rivojlanish darajalariga muvofiq bo'lishiga e'tibor qaratildi.

2.3. To'garak mashg'ulotlarining rejasini ishlab chiqish. Bunda mashg'ulotlar rejasining to'garak faoliyati dasturiga mosligi ta'minlandi. Shunday qilib, "Qiziqarli informatika" to'garagini metodik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil qilish jarayoni bir nechta amaliy harakatlarni amalga oshirish orqali kechadi. Zarur harakatlarni aniq maqsadga yo'naltirish tegishli jarayonning maqsadli, tizimli, izchil, uzluksiz tashkil etilishini ta'minlash bilan birga o'quvchilarda informatika va axborot texnologiyalari sohasiga oid akademik tushuncha, amaliy malaka va kompetensiyalarni rivojlantiradi. "Qiziqarli informatika" to'garagi faoliyati ham bir necha bosqichlarda kechadi. Bosqichlarning har birida juz'iy maqsadlarga erishish umumiy holda to'garak faoliyatini akmeologik yondashuv talablariga muvofiq yuqori darajada samarali tashkil qilinishi uchun zarur pedagogik sharoitni yaratdi[5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takkomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni itendustriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020 yil 6 oktyabr) PQ-4851-son Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/5032128>

2. Акмеологические принципы педагогической деятельности / Авторы: Н.А.Ефремова-Шершукова и др. // Ж. Современные наукоемкие технологии. – Пенза: 2019. - № 11-1. – С. 156-160.

3. Akramov A.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. ... dis. – T.: 2016. – 282 b

4. Анищенко А.Н., Левина Е.В. Цифровая компетентность как основа конкурентоспособности работника на рынке труда агропромышленного комплекса в условиях киберэкономики // Экономика и социум: современные модели развития. – М.: 2020. - № 3. – Т. 10. – С. 234-235.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

5. Ergashev E.E. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda o'quvchilar bilan ishlashning zamonaviy metodlari / "Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida". Respublika ilmiy-amaliy konf. // [https://talqinvatadqiqotlar.uz.1-296-302_20\(1\)](https://talqinvatadqiqotlar.uz.1-296-302_20(1)).

